

## “UNVONUD DALIL” ASARNING MAZMUNI VA UNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Azizov Mirzabobur Obbos o'g'li

O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi

2-kurs magistranti

Abul Abbos Marokishiyning shar'iy ilmlar sohasida qalamga olgan eng muhim asari ushbu «Unvanud-dalil min marsumi xattit-tanzil» nomli asaridir. Bu asar mus'haf imlosining ta'liliga asoslangandir. Boshqacha aytganda, Abul Abbos Marokishiy mus'haf imlosining tavqifiy ya'ni ilohiy tarafdin bo'lgani xususiyatini ilgari surib, Rasmul Mus'hafdagi imlo farqliliklarining tasavvufiy va falsafiy jihatdan izohlab qalamga olgan. Muhaqqiq Chalabiy bu asarning tahqiqida uchta nusxaga binoan tadqiq qilganini bayon qilib, ular haqida asosiy ma'lumotlarni taqdim qilgan.

Hind Chalabiyning zikr qilib keltirgan nusxalar quyidagilardir:

- Maktabatul Ahmadiya nusxasi (Bayrut)<sup>1</sup>
- Al- Xizaanatul-Aamma nusxasi (Ribot)<sup>2</sup>
- Maktabatul-Hasaniya nusxasi (Ribot)<sup>3</sup>

Hind Chalabiy bulardan «Maktabatul Ahmadiya» nusxasini eng qadimiy bo'lgani uchun uni «Al-Xizaanatul Aamma» nusxasiga qiyoslab, uning yanada ochiq va xatolari oz bo'lgani sababli uni asosiy nusxa sifatida qabul qilganini ifodalagan. «Maktabatul Hasaniya» nusxasining esa qolganlarga nisbatan qisqa, yopiq va imlo va ma'no jihatidan qorishiq ekanini qayd qilgan. Chalabiy bu asarda, o'rni kelganida Zarkashiyning Al-Burhon nomli asariga ishora qilib undagi ba'zi o'rinlarda Zarkashiyni tanqid qilgan va o'sha nuqsonli o'rinlarni tilga olgan.<sup>4</sup>

Bu asarning Abul Abbos Marokishiyga nisbati xususida hech qanday shubha bo'lmasada, lekin uning nomi borasida ba'zi bir farqliliklarning mavjud ekanini aytish

<sup>1</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 10-11-betlar.

<sup>2</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 11-bet.

<sup>3</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 10-11-betlar.

<sup>4</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 12-bet.

mumkin. Faqat Chalabiyning ham ifoda qilgani kabi, bu farqliliklar oddiy va bir-biriga yaqin bo'lgan nomlarni tashkil qilgani tufayli ahamiyatsiz ekanligidir. Asarning muqaddimasida keltirilgan bunday farqli nomlar quyidagichadir:

- «Unvanud-dalil marsumi xattit-tanzil»<sup>5</sup>
- «Unvanu marsumi xattit-tanzil»<sup>6</sup>
- «Unvanud-dalil fiy marsumi xattit-tanzil»<sup>7</sup>
- «Unvanud-dalil min marsumi xattit-tanzil»<sup>8</sup>

Qo'limizdagi ushbu nashr qilingan nusxaga qaraganimizda uning kirish qismidan keyin asarning mazmuniga va muallifining hayotiga doir ma'lumotlar kelgan, so'ng boshqa yozma nusxalardagi ba'zi varaqlarga oid namunalar joylashtirilgan. Undan keyin esa olti sahifalik muqaddima bilan asarini boshlagan muallif, mus'haf imlosiga taalluqli mavzularni bob va fasllarga bo'lib qayd qilgan<sup>9</sup> hamda oyat-sura jadvallari bilan ushbu asarini nihoyasiga yetkazgan. Murojaat qilingan manbalar va mundarija ham qo'shib hisoblanganda 156 sahifadan iborat bo'lgan ushbu asar Hind Chalabiy tarafidan tahqiq qilinib, 1990-yilda Bayrutdagi Matobi'ush-shuruq bosmaxonasida va Dorul-g'arbil-islamiy nashriyotida chop qilingan.

Bu asarning mus'haf imlosida tutgan o'rni, ahamiyati va keyingi tadqiqotlarga ta'siri borasida quyidagilarni aytish mumkin. Har qanday olimning bir asari haqida ma'lumot berish o'sha muallifning yanada yaxshi tanishishimizga, undan foyda olishimizga va uning boshqa sohalarda ham ta'liflar qilgani va bu ta'lifotlaridagi uning uslublarining yuzga chiqishiga vosita bo'ladi. Xususan, Abul Abbos Marokishiy asosan matematika va astronomiya sohasida asarlar qalamga olgani bilan shuhrat topgan, faqat uning nomi shar'iy ilmlar sohasida unchalik ham e'tibor qozonmagan.

<sup>5</sup> Tinbuktiy, Naylul-ibtihaj, 66-bet.

<sup>6</sup> Muhammad ibn Muhammad Maxluf, Shajaratun-nuriz-zakiya fiy tabaqotil-maalikiya, 1-nashr, Qohira, Al-Matbaatus-salafiya va maktabatuha nashriyoti, 216-bet.

<sup>7</sup> Zarkashiy, Al-Burhon, 380-bet.

<sup>8</sup> Asarning uchta nusxasida ham nomi shu tarzda kelgan. Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 12-bet.

<sup>9</sup> Muallif bu asarini bobul-hamza, bobul-alif, bobul-vov, bobul-ya, bobu maddi taai va qabziha, bobul-vasl val-hajz, bobu hurufin mutaqoribatin shaklida bo'limlarga ajratib mavzularni bayon qilgan. Ayni vaqtda u bu boblarni fasllarga ham bo'lgan. Masalan, u bobul-alif mavzusini bayon qilib, alifning hazf qilingan o'rinlarni va ziyoda qilingan joylarni, vov yoki yo harfidan badal sifatida kelgan alifning mohiyatini ham tushuntirgan...

Shu sababli, ushbu tahqiq va tadqiq natijasida uning ko'pchilik tarafidan bilinmagan jihatlari ham yuzaga chiqib, diniy ilmlar borasidagi ixtisosliklari ham tanilgan bo'ladi.

Muhaqqiq Chalabiy bu asarning o'z sohasida yagona ekanini qayd qilgan.<sup>10</sup> Bu asar qalamga olinmasidan oldin ham ushbu mavzuda bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, bular asosan vasfiy xususiyatda bo'lib, ularda ta'lillarga keraklicha e'tibor qaratilmagan, xossatan avvalgi asarlarda bu mavzu butunicha tafsilotlari bilan ochiq qatlanmagan. Jumladan, Ibn Ma'oz Al-Jahniyaning (vafoti 442/1050) *Kitaabul-badi' fiy ma'rifati ma rusima fiy mus'hafi Usman* asari, Abul Abbos Ahmad ibn Ammor Al-Mahdaviyning (vafoti 430/1038) *Kitaabu hijai masohifil-amsor* asari va Abu Amr Usmon ibn Said Ad-Doniyning (vafoti 444/ 1052) *Al-Muqniy fiy rasmi masohifil-amsor* asarlari shular jumlasidandir. Faqat bu asarlarning mualliflaridan bo'lgan olimlarning ba'zilar mus'haf imlosidagi farqlarning sabablarini Qur'onning tadvini qilingan asrdagi yozuvning tabiatiga va imlo qoidalariga tayangan holda izohlab qalamga olganlar. Yana boshqa olimlar esa qiroatdagi farqlarni va yozuvdagi qisqartirish kabi omillarni ham diqqatga olib masalani izohlashga uringanlar, hatto imlodagi farqlarning sabablarini sahobalarning yozuv borasidagi nuqsonliklariga qadar olib borganlar.<sup>11</sup>

Abul Abbos Marokishiy esa o'zidan oldingi olimlarni tanqid qilib, masalani farqli jihatdan qalamga olgan va mus'haf imlosida bo'lgan farqliliklarni ittifoqan emas, tahqiqiy bo'lganini aytib, kerakli shartlarga unchalik e'tibor qaratmagan. Boshqacha aytganda, u mus'haf imlosidagi bu holatni bashariy emas, ilohiy tarafdin bo'lganini ifodalab, o'sha farqliliklarning sabablarini tasavvufiy va falsafiy jihatdan izoh qilgan hamda o'rtadagi ixtiloflarni bartaraf qilishga harakat qilgan. Abul Abbos Marokishiyning bu masalani o'ziga xos uslub bilan boshqa olimlardan farqli tarzda qalamga olishi uning ushbu asarini e'tiborga molik qilgan, shu bilan birga bu asar ba'zi kishilar tarafidan tanqid qilinishiga ham sabab bo'lgan.<sup>12</sup>

<sup>10</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 17-bet.

<sup>11</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 13-14-betlar.

<sup>12</sup> Abul Abbos Marokishiy, Unvanud-dalil, 14-bet.

Ushbu asar bu sohada tadqiqot qilgan ko'pchilik insonlarning diqqatini o'ziga tortgan va eng ko'p foydalaniladigan manba bo'lgan. Masalan, imom Suyutiy o'zining *Al-Itqon fiy ulumil-Qur'on* asarining 76-bobini bu mavzuga xos qilgan va uni mazkur asarga bog'lab izoh qilgan.<sup>13</sup> Zurqoniy ham *Manohilul Irfonda* mus'haf imlosining ta'lili borasida Abul Abbas Marokishiyning yondashuviga o'xshash ifodalar bilan bu masalani izohlashga uringan. Xususan, Zarkashiy *Al-Burhon fiy ulumil-Qur'onda*, Qastaloniy esa *Latoiful-ishorot* nomli asarlarining tegishli bo'limlarida bu masalaga ko'plab murojaatlar qilganlar, hatto Zarkashiy bu mavzu haqidagi o'z qarashlarini Abul Abbas Marokishiyning fikrlari bilan qorishtirib, asarini bir butun tarzda taqdim qilgan. Yana kunimizning tadqiqotchilaridan bo'lgan G'onim Kadduriy Hamid ham o'zining *Rasmul-mus'haf dirosatun lug'aviyatun tarixiyatun* nomli maqolasida, Muhammad Amin Mashali esa *Qur'onning matn tuzilishi* nomli asarlarida Abul Abbas Marokishiyning bu qarashlariga diqqat qaratganlar va mazkur asarni bu jihatdan manba sifatida qo'llaganlar.

Zarkashiyning *Al-Burhon* nomli asarining tegishli bo'limlarida bu risola mavzularining ko'piga joy ajratilishi ushbu asarning qisqa vaqtda tez yoyilib ketganini ifoda qiladi. Zero, Abul Abbas Marokishiyning 721-yilda vafot etganini, Zarkashiyning esa 745- yillarda dunyoga kelganini taqqoslasak, ikki o'rtada unchalik ko'p vaqtning o'tmaganini bilamiz. Bunga qo'shimcha, bu ikki olimning yashagan shaharlarining (Qohira-Fa's) orasidagi masofaning uzoqligini ham ko'z o'ngiga keltirsak, mazkur asarning qisqa vaqtda g'arb islom dunyosida katta shuhrat qozonib, keng yoyilganini ham ayta olamiz.<sup>14</sup> Faqat, Chalabiy Zarkashiyning bu asarini naql qilayotib qilgan xato va kamchiliklarini tilga olgan va bu borada uni tanqid qilgan.<sup>15</sup> Ushbu olimlarning fikrlariga qaraganda, mazkur asar oddiy bir asar bo'lmay, balki ko'plab e'tiborlarga sazovor bo'lgan, istifoda qilingan va mus'haf imlosidagi farqlarni tasavvufiy-falsafiy jihatdan izohlagan yagona asar ekanligi ayon bo'ladi.

<sup>13</sup> Qarang, Suyutiy, *Al-Itqon*, 743-756-betlar.

<sup>14</sup> Abul Abbas Marokishiy, *Unvanud-dalil*, 13-bet.

<sup>15</sup> Abul Abbas Marokishiy, *Unvanud-dalil*, 9-10-betlar.